

## **SHE'R UNSURLARI**

**Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna** Termiz davlat universiteti ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

She'r unsurlari haqida ma'lumot berildi. Badiiy adabiyot va badiiy so'zning amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Nasr va nazm haqidagi tushunchalar, raviy, radif, qofiya, ruju, hojib haqida ma'lumotlar keltiriladi. Raviy tirgak tovush bo'lib, qofiyadosh so'zlarda asos qismning oxirida qo'llaniladi. Radif, misra oxiridagi takrorlanuvchi so'z bo'lib ular yoyiq va yig'iq radif shaklida bo'ladi. Qofiya-she'riy san'atning eng muhim qismlaridan biri. U misra oxiridagi so'zlar yoki bo'g'inlarning tovush juhatidan mos kelishi, ohangdosh bo'lishidir. Ruju-arabcha "qaytish" bu she'riy san'atlardan biri bo'lib, shoirning avval aytgan fikridan, shoirning avval aytgan fikridan qaytib, uni yanada kuchliroq va ta'sirchanroq ifodalashga asoslangan san'at. **Kalit so'zlar:** she'r, badiiy adabiyot, nasr, nazm, qofiya, ruju.

### **She'r unsurlari**

Shoir - arabcha so'z bo'lib, donishmand, tushungan, anglagan, topgan, tanilgan ma'nolarini anglatadi, aslida she'r so'zidan olingan shoir so'zi donishmandlik va ma'rifat demakdir. Adabiyot - odob, adab va yot yoki ot arabcha ko'plik, jamliklar ko'shimchasini ifoda etadi, ya'ni ko'plikda odoblar ma'nosini beradi. Badiiy adabiyot, demak badiiy so'zi ilk kezlar yangi ma'nosini anglatgan, keyinroq ma'no ko'chish hodisasi yuz berib go'zal ma'nosiga ega bo'ladi, xulosa badiiy adabiyot - go'zal odoblardir. O'z vaqtida xassos shoirimiz va dono adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda badiiy adabiyotni nafis adabiyot, nafis odoblar, deb atashga moyillik bildirgan ekan.

Nazm marvarid va javohirlarni ipga tizish, ya'ni durlar yoki marvaridlar shodasi ma'nosida va tartib-intizom ma'nosini ifoda etadi, nazm so'zining ma'nosi she'r so'zining ma'nosidan ancha kengroq. Nazm - hayot voqealarini shoirona so'z va ifodalar orqali hamda turli ko'rkli, chiroyli so'zlar, ziynatli qofiyalar vositasida aks ettiradi. Manzum tuzilgan, tizma, terilgan, tartibga solingan ma'nolarini anglatadi. Manzum ham she'riy asarga nisbatan qo'llanadi va u she'r demakdir, chunonchi Sayfi Saroyi ("Guliston biturkiy" tarjimasida) she'riy hikoyat - hikoyati manzum tarzida nomlanadi. Manzuma ko'pligi manzumot, u ham tuzilgan, tizma ma'nolarini anglatadi va kattarok voqealar

tizimiga molik. She'r yoki mo'jazroq she'riy asarga nisbatan ishlatiladi, masalan dostonga ham shu xil nom berilishi mumkin.

Nasr va mansur istilohlari nasriy asarlarga nisbatan ishlatiladi, ushbu atamalarning lug'aviy ma'nosi nazm yoki manzuma zid bo'lgan holda sochilgan, to'zilgan ma'nolarini aks ettiradi. Ya'ni nazm va manzum ipga tizilgan, tartib bilan terilgan marvaridlar shodasi, shokila ma'nosini ifoda etsa, nasr va mansur ipga tizilgan, tartib bilan terilgan marvarid shodasi yoki shokilasining to'zg'igan, ip uzilib sochilgan mazmunni anglatadi.

She'r unsurlari: misra, bayt, matla'-mabda', maqqa', rukn (turoq-hijo-vazn), sadr, aruz, ibtido, zarb-ajuz, hashv (bezak), shohbayt, taxallus, qofiya, radif, hojib (niqob), raviy va boshqalar. Misra arabcha so'z, eshikning bir pallasi, bayt- uy, matla'-quyoshning, oyning, umuman, yulduzlarning chiqish joyi, qasida va g'azalning birinchi bayti. Mabda'-chashmaning suv chiqadigan joyi, ya'ni ko'zi ma'nolarini anglatadi, maqta'-kat', ya'ni kesilgan, kirqilgan joy mazmunini beradi. Aksar vakt maqta'-qasida yoki g'azalning oxirgi bayti sifatida qarab kelingan, aslida esa maqta' nazmiy va nasriy asarlarning xulosa, yakuniy qismidir. Shundan maqta' xotima, anjom, ado, oxir, yakun va xulosa ma'nolarini ham beradi, lekin maqta'ni bir baytdan iborat deb qat'iy hukm chiqarish g'alatdir. Boisi asar, umuman she'riy asarning yakuni a'lo darajada aytilsa, u adabiyotshunos nazariyotchipar tarafidan husni maqta' deb nomlangan. Chunonchi Ataullo Husayniyning Alisher Navoiy madhidagi qasidasi maqta'i uch baytlidir.

Husni maqta'dek husni matla' ham mavjud, she'rning ilk baytida ajralib turuvchi chiroyli fikr, go'zal g'oya tashkil topgan baytga husni matla' deyishgan. Sababi asarning boshlanishi qanchalik jozibali bo'lsa, uning keyingi voqealari o'quvchining rag'batini shunchalik orttirib borgan. Ba'zan husni matla'ni husni ibtido nomi bilan ham atashadi, shoir Husayniy(1438-1506)dan bir misol:

*Evrulub gul boshig'a bulbul visol o'lg'ay anga*

*Gul aning boshig'a evrilsa ne hol o'lg'ay unga.*

**Rukn** - misralararo so'zlar aloqasi va u hijo, vazn, bo'g'in ma'nolariga ega, u bir bo'g'indan besh bo'gingacha bo'lishi mumkin. Goho ruknga hijodan katta, ammo vazndan kichik deb ta'rif beriladi, goho esa uni turokka mos kelishi uktiriladi. Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari"da ruknga nisbatan vazn va o'lchov istilohlarini qo'llaydi, ba'zi o'rinlarda rukn tag'in bahr so'zi bilan almashtiriladi. Umuman, ruknning o'ziga xos qismlari bor, uning xos unsurlari ushular: sadr, aruz, ibtido, zarb-ajuz, xashv va boshqalar. Rukn - arabcha so'z bo'lib tamal (poydevor), sutun (ustun) ma'nolarini bildiradi, shunday baytning rukni, |o'| riogi uyning xonalari ma'nosiga ega. Shunday so'zlar tizimidan misra paydo bo'lgandek, misra va baytlararo rukn unsurlari

joylashadi. Ruknning sadr qismi baytdagi birinchi misraning boshlanishi bo'lsa, shu boshlang'ich misraning oxiri pruz deyiladi. Baytdagi ikkinchi misraning boshlanmasi ibtido (boshlang'ich) va uning oxirgi qismi zarb yoki ajuz istilohi bilan yuritiladi. Navoiydan bir misol:

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,  
Ko'zlarimga kecha tong otkuncha uyqu kelmadi.*

Demak, baytning birinchi misrasidagi "Kecha kelgum..." - sadr, misra oxiridagi "gulro' kelmadi" - aruzdir, ikkinchi misradagi "Ko'zlarimga" - ibtido, shu misraning oxirgi "uyqu kelmadi" - zarb (ajuz)dir. Qolgan birinchi misradagi sadr va aro'z, ikkinchi misradagi ibtido va zarb oralig'idagi: "dur debon ul sarvi | ulro'" hamda "kecha tong otquncha" so'zlar tizimi hashv, ya'ni bezakdir.

**Shohbayt** - ko'p jihati bilan husni matla' va husni makga'ga berilgan gl'riflar unga x,am mansub, to'g'ri husni matla' yoki husni maqta' bir bayt kobig'ida qolib ketmay, balki u ikki, uch va undan ortiq baytli bo'lishi mumkin. Qizig'i shohbayt esa o'z nomiga monand ravishda bir baytdan iborat bo'ladi va u kng'iy belgilangandir. Misol:

*Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.* (Alisher Navoiy)

Taxallus-dastlab qasidada ishlatilgan, so'ngroq, asosan, g'azalda qo'llangan va g'azalning qaysi shoir qalamiga mansub ekanini bilishda qo'l kelgan. Taxallus qasidaning ikkinchi qismi gurezgoxda qo'llanib, shundan maqtov madhga o'tib borilgan, hatto qasidaning gurezgohini dastlabki paytlar taxallus deb atashgan jan. Fors-tojik adabiyotida X asrdan boshlab bu borada o'zgarish ro'y beradi, ya'ni uni ham taxallus deb atash odat tusiga kiradi. Bu odat, asosan, u yoki bu asarda muaplif nomining qayd etilishi bo'lib, avvalo, asar egasini bilishda qo'l kelgan. Asarda muallif nomining keltirilishi adabiy tur va navlar nuqtai nazaridan chsgara bilmagan, balki uni qasida, g'azal, ruboiy, qit'a, tarje'band, musammat, masnaviy va dostonlarda ham qo'llash mumkin bo'lgan. Dastlab taxallus she'rning boshlanishida, goho o'rtasida, ba'zan oxirida qo'llangan, ya'ni uning aniq ;xoyi tayin etilgan emas edi. Bu hodisa X-XI asrlar fors-tojik adabiyoti uchun odatiy g`ol edi, keyingi zamonlarga kelib taxallusning o'rni qat'iy ravishda she'r oxiridagi baytda qayd etish an'anasi hukm surdi. Qiskasi gachgmda, umuman, she'riy asarlarda muallif nomini qo'llanish qoidasini Ataullo Husayniy quyidagicha izohlaydi: ("mashhurdirki, Qadimlar) "...Mashhur on ast, ki kudamo inro "taxallus" meguftaand va mutaxxironi shuaroi Ajam inro "gurezgoh" mego'yand (Badoe'-us-sanoe'. -S.123). Taxallusni asar oxirida, demak g'azal so'nggida chiroyli ishlata bilishga husni taxallus deyishgan. Mumtoz she'riyatdagi ko'plab atamalar uy qurilishiga aloqador, masalan: bayt - uy (baytulloh-

Allohning uyi, baytulhikma-bilimlar uyi), rukn - ustun (sutun-tirgak), tarse'- ayvon kabi.

Demak shoirlar ham o'z asarlarini bino-imoratga mengzab she'r oxirida taxallus qo'yish ko'piicha me'morning o'zi kurgan, o'zi barpo etgan binoga nomini yozishiga o'xshab ketadi, "amali faloni" (falonchining ishi) singari.

**Qofiya** - arabcha so'z bo'lib, ergashmok, izidan bormok ma'nolariga ega, nixoyat she'rda misralar oxiridagi ohangdosh so'zlar tizmasiga aytiladi. Misol:

*Junun vodisig'a mayil ko'rarmen joni zorimni.*

*Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zg'orimni.* (Alisher Navoiy)

**Radif** - arabcha so'z, u otga mingashish yoki esh bo'lish, ergashish ma'nolarini kasb etadi, she'rda qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'zga radif deyilyadi.

*Vasl uyin obod qildim, buzdi xijron oqibat,*

*Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat.* (Nodira)

**Hojib** - arabcha so'z, u bir o'rinda niqoblangan (pardador. Musulmoniyon - S.255) deyilsa, boshqa bir joyda hojib-darvozabon, (R. Boboev -S.315) tarzda talqin etiladi.

Misol:

*Ko'ngul mulkin harob etgi firoking,*

*Qamug' olamni sayd etti qarog'ing.* (Xo'jandiy)- (hojib, qofiya)

Xayoling keldisa jondin o'tar g'am,

Xayolingni topgan jondin ko'par g'am. (Xo'jandiy)- (hojib, qofiya, radif)

**Raviy** - qofiya tizimi bilan chambarchas bog'liq hodisa u rivo so'zidan paydo olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi tuyaga yuk ortishda ishlatiladigan arqon demakdir va u qofiyaning hamohanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Raviyda asosiy vazifani so'z o'zagidagi tovush hal qiladi,

Misolar:

Ko'rsat jamoling mastonalarga

Ishqida kuygan parvonalarga. (Mashrab)

Jafovu saltanat sizga yarashur,

Vafovu maskanat bizga yarashur. (Xo'jandiy)